

Mamasidiqov Bahodir Abduboqi o‘g‘li

Andijon davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti

Turizm yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Farg’ona vodiysi O’zbekiston Respublikasining eng qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. O’zining serjilo tabiat bilan bir qatorda qadimiy-tarixiy shaharlari, diqqatga sazovor joylari bilan odamlar e’tiborini o’ziga jalg etib kelmoqda. Xususan, Farg’ona viloyatining Qo’qon shahri Qo’qon xonligining markazi hisoblangan. Ushbu tarixiy shaharda joylashgan Xudoyorxon o’rdasi esa ushbu xonlikning ma’muriy markazi hisoblangan. Xon saroyi ham aynan shu joyda joylashgan. Ushbu ma’muriy bino qurilishida sharq an’alarining eng yuksak namunalarini ko’rish mumkin*

Kalit so’zlar: *tarixiy obyekt, turizm, o’rda, ma’muriy markaz, xon, Kufiy yozuvni, xonaqoh, xaram, minora*

Аннотация: Ферганская долина – один из древнейших центров Республики Узбекистан, наряду с прекрасной природой, привлекает внимание людей своими древними и историческими городами и достопримечательностями. В частности, город Кохан Ферганской области считался центром Коханского ханства. Орда Худоёр-хана, располагавшаяся в этом историческом городе, считалась административным центром этого ханства. Ханский дворец также расположен в этом месте. Высочайшие образцы восточных традиций можно увидеть в строительстве этого административного здания.

Ключевые слова: исторический объект, туризм, орда, административный центр, хан, куфическая письменность, дом, гарем, минарет.

Abstract: *Fergana Valley is one of the oldest centers of the Republic of Uzbekistan. Along with its beautiful nature, it attracts people’s attention with its ancient and historical cities and attractions. In particular, the city of Kokhan of Fergana region was considered the center of the Khanate of Kokhan. The Horde of Khudoyor Khan, located in this historical city, was considered the administrative center of this khanate. The Khan’s palace is also located in this place. The highest examples of eastern traditions can be seen in the construction of this administrative building*

Key words: *historical object, tourism, horde, administrative center, khan, Kufic script, house, harem, minaret*

Farg’ona vodiysi qadimdan madaniy hamda tarixiy markaz bo’lib kelgan. Buning asosiy sabablari esa Buyuk Ipak Yo’lining Farg’ona vodiysi bo’ylab o’tkanlididadir. Jumladan, vodiyning Hoqand(Qo’qon), Marg’ilon, Koson kabi shaharlari nafaqat madaniy markaz balki tarixiy obidalari bilan ham sayyoohlarni o’ziga jalg etib kelgan. Ular orasida eng kattasi hamda eng mashhuri Ho’qand(Qo’qon) shahri hisoblanadi.

1709-yilda Qo'qon xonligi tashkil etilgach, 1711-yilda Eskiqo'rg'on qal'asi o'rnila Qo'qon shahriga asos solinadi, istehkom hamda qal'a bunyod etiladi. 1732-yili Abdurahimbiy bu ishni nihoyasiga yetkazdi va shaharni xonlik poytaxtiga aylantirdi. Shu davrdan boshlab shahar Qo'qon deb atala boshlandi.

Qo'qon shahrining etimologiyasiga ahamiyat qiladigan bo'lsak "go'zal", "shamol shahri" degan ma'nolarni anglatadi. Shaharning mustahkam devori, 12 darvozasi (Xo'jand, G'oziyog'liq, Quduqliq, Sarmozor, Namangan, Chimyon, So'x, Marg'ilon, Rishton, Mo'yimuborak, Qatag'on, Isfara) bo'lgan. Qo'qon hududi 12 ma'muriy bo'lak (daha)ga taqsim qilingan.

Qo'qon xonligi juda katta va juda kuchli xonlik bo'lган, shu sababli ham uning hukmdorlari katta mavqeiga ega bo'lishgan. Xudoyorxon 1845 yilda xonlik taxtiga 12 yoshida o'tirdi. Garchi yangi xon taxtda o'tirgan bo'lsada, amalda hukmronlik uning qaynotasi qipchoqlar urug'ining yetakchisi Musulmonqul qo'lida edi. Beboshlik shu darajaga yetganki, qipchoqlar xohlagan hududini Musulmonqul tomonidan chiqarilgan soxta farmonlar bilan o'zlashtirgan, aholi tomorqalariga keladigan ariqlarni qipchoqlar to'sib, soliq to'lanmaguncha ochilmagan. Natijada ichki kurash kuchayib, 1852-yil 9-oktabrda qipchoqlar qirg'ini boshlangan. Buning oqibatida 20 mingga yaqin qipchoqlar o'ldirilgan, Musulmonqul esa Qo'qonda dorga osilgan. Shu yildan Xudoyorxon davlatni mustaqil idora qila boshlagan. Ammo, tajribasizligi tufayli ko'p xatolarga yul qo'ygan. Bundan foydalangan akasi Mallabek taxt uchun kurashni boshlab yuborib 1858 yil o'zini Qo'qon xoni deb e'lon qilgan (qarang Mallaxon). Xudoyorxon Buxoroga qochishga majbur bo'lgan. 1863 yil Buxoro amiri Muzaffar yordamida Qo'qon taxtiga qayta o'tirgan. Ammo mingboshi Alimqul xonzodalardan bo'lmish yosh Sayyid Sultonmurodni xon deb e'lon qiladi va Xudoyorxonni yana Buxoroga qochishga majbur etgan. Alimqul amir ulumaro bo'lib amalda davlat ishlarini yakka o'zi boshqarib borgan. Qo'qon xonligidagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi xonlikka tegishli Turkiston, Chimkent (1864 yil) va Toshkentni (1865) bosib olgan. 1865 yil Qo'qon taxtiga Xudoyqul ("Belboqchixon" degan laqabi ham mavjud) o'tirgan. Ammo u 14 kundan so'ng xazinani o'zi bilan olib Qashqarga qochib ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon yana taxtga chiqqan. Xudoyorxon davrida qishloq xo'jaligiga e'tibor berilgan, yangi anhor va ariqlar qazilgan. Aynan uning davrida Qo'qon xonligining ma'muriy markazlaridan biri- Xudoyorxon o'rdasi qurib bitkazilgan(1863-1873). Ushbu noyob arxitekturaviy yodgorlik Me'mor va Muhandis Mir Ubaydulla Muhandis loyihasi va rahbarligida bunyod etilgan.¹⁸

Ushbu me'moriy obida dastlab 3 qism 114 ta xonadan iborat bo'lgan. Lekin hozirda uning shahriston qismigina saqlanib qolgan. Shahriston qismi ham bir qancha hovli hamda xonalardan iborat bo'lgan. Hozirda esa atigi 2 ta hovli hamda 19 ta xona saqlanib qolgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining istilo qilinishi natijasi ko'plab obidalar qatori Xudoyorxon saroyi ham jiddiy zarar ko'rdi. Saroydagि

¹⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xudoyorxon_o%CA%BBrdasi

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

ko'pgina davlat xazinasi mustamlakachilar qo'liga o'tdi. Jumladan, Xudoyorxonning taxti ham Sank-Peterburg Ermitajida saqlanmoqda. Shuningdek, ushbu saroydan omborxonona, otxona sifatida foydalanilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin madaniy-ma'rifiy sohada bir qancha islohotlar o'tkazdi. Jumladan, mamlakatimizdagi tarixiy obyektlarni muhofaza etish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

“Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.”¹⁹

Shuningdek, boshqa tarixiy obyektlar qatorida Xudoyorxon o'rdasi ham davlat muhofazasiga olindi. Hozirda unda mahalliy tarixiy muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. <https://uzbekistan.travel/uz/o/xudoyorxon-saroyi/>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xudoyorxon>
4. <https://www.ferganatourism.uz/kokand-2/album/dvorets-khudayarkhana>

5. O'zbekiston tarixi. Darslik. 8-sinf. “O'QITUVCHI” NASHRIYOT - MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT—2014

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2- bo'lim 49-modda